

ERTAK-HIKOYALAR ORQALI IFODALI O‘QISHNI O‘RGATISH METODIKASI

Abdullaeva Gulmira Abdullaevna

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida assistent o‘qituvchisi

abdullayevagulmira@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi bir qator badiiy matnlar, ya‘ni ertak-hikoyalar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ifodali o‘qishni o‘rgatish metodikasi o‘rganib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Ifodali o‘qish, boshlang‘ich sinf, o‘qitish, metod, texnologiya.*

Abstract. In this thesis, the methodology of teaching expressive reading to elementary school students through a number of artistic texts, that is, fairy tales, is studied.

Keywords: *Expressive reading, primary class, teaching, method, technology.*

Аннотация. В данной дипломной работе изучается методика обучения выразительному чтению учащихся младших классов через ряд художественных текстов, то есть сказок.

Ключевые слова: *Выразительное чтение, начальный класс, обучение, метод, технология.*

KIRISH. Badiiy adabiyot paydo bo‘lishi bilan uning ifodali o‘qilishi, og‘zaki ijrochiligi ham maydonga keldi. Badiiy adabiyotning shakllanish bosqichlari g‘oyat murakkab, rang-barang bo‘lgani kabi, uning og‘zaki ijrochiligi taraqqiyoti ham katta tarixga ega. Masalan „Avesto“ning yaratuvchilari, bora-bora uning professional ijrochilariga aylanib qolgan qohinlar toifasi xalq orasida adiblar sifatidagina emas, balki jonli so‘z sehri bilan mo‘jizalar ko‘rsatuvchi mutaxassislar sifatida ham katta e‘tibor qozonganlar.

ASOSIY QISM. O‘zbek badiiy so‘z ijrochiligi san‘atining sarchashmalari tarixining juda uzoq qatlamiga borib taqaladi. Adabiyotshunos olim N.M.Mallaev ta‘kidlaganidek, “Badiiy so‘z san‘ati yozuv va yozma adabiyotdan ko‘p zamonlar ilgari og‘zaki ijod shaklida paydo bo‘ladi, hamda yozma adabiyotning vujudga kelishiga zamin hozirlaydi. U og‘izdan-og‘izga avloddan-avlodga, davrdan-davrga o‘tadi”.

O‘rta Osiyoda shoirlar bilan bir qatorda, ularning asarlarini majlis-anjumanlarda keng mehnatkash xalq orasida ijro etuvchi san‘atkorlar- roviylar toifasi paydo bo‘ladi. Roviylilik va roviylar haqida tarixiy manbaalarda qimmatli ma‘lumotlar uchraydi. Masalan: Nizom Arus Samarqandiy ma‘lumotiga qaraganda, “ Firdavsiy “ Shoxnoma” asarini ijod etgach Ali Daylam unga xattotlik, Abdulaf roviylik qildi”.

Ko‘rinadiki, qadimda badiiy so‘z ijrochiligining butun bir yo‘nalishi, o‘ziga xos maktabni tashkil etuvchi roviylar toifasi katta shon-shuhrat va ijtimoiy mavqega ega bo‘lgan. Biroq, jamiyat taraqqiy qilishi bilan roviylik tarmoqlanib, XV asrlarga kelganda,

mustaqil badiiy ijrochilik ko‘rinishlari va ularga mansub ijrochilar toifasi voyaga yeta boshladi.

O‘tmishda she‘rni tushunib o‘qishga katta e‘tibor berilganligini Alisher Navoiy quyidagicha ifodalaydi;

Yodima mundoq kelur bir mojaro
Kim tufuliyat chog‘i maktab aro,
Istabon tashxisi xotir ustod,
Nazm o‘quturkim ravon bo‘lsun savod.

Buyuk shoirning o‘zi bolalik va yigitlik paytlaridayoq ellik ming bayt, ya‘ni yuz ming misra she‘rni yod bilgan va ulardan estetik zavq olgan. Ifodali o‘qish san‘atiga bo‘lgan chuqur hurmat-ehtiromni rus va Yevropa xalqlari pedagogikasi tarixida ham yaqqol kuzatish mumkin. 18 asrga kelib, Rossiyada ifodali va badiiy o‘qish san‘ati teatr sahnalarida, adabiy kechalardan keng o‘rin ola boshlagan.

INSON o‘qish va yozishni o‘rgangandan keyin kimdadir qo‘shiq tinglashga, kimdadir ertak yoki rivoyatlar tinglashga ehtiyoj seziladi. Ba‘zida esa inson yolg‘iz qolib kuy, qo‘shiq, she‘r eshitgisi yoki o‘zi yoqtirgan qo‘shiqlarini xirgoyi qilishi, o‘zi sevib yodlagan she‘rlarini ifodali o‘qishni istab qoladi. Bunday paytda albatta qo‘shiq, she‘r so‘zlari tushunarli, ifodali, yoqimli va albatta ta‘sirli bo‘lishi kerak, ya‘ni inson qalbini qamrab olishi kerak. Buning uchun esa ifodali o‘qish xususiyatlari yoki usullari haqida ma‘lumotga ega bo‘lishi lozimdir.

Aytaylik, jamoa joylarda ma‘ruza qilish, she‘r o‘qish yoki ayollarga alla, yor-yor aytishga zarurat tug‘ilib qolsa, ifodali o‘qish xususiyatlarini mukammal o‘rganib, nutqi ravon shirali bo‘lib, o‘z fikrlarini tinglovchiga to‘g‘ri va izchil yetkaza olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Biz ifodali o‘qishning inson hayotiga katta ta‘siri yoki ichki his-hayojonga berilishida uning ahamiyati haqida fikr bildirmoqchimiz. Biz buning uchun nasriy asarlardan biri ertak yoki xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi turi haqida ma‘lumot berib, uning o‘qilishi haqida quyidagi namunani bermoqchimiz. Biz farzandlarimizga ertaklarni ifodali o‘qib berish bilan birga, ertakning mazmun-mohiyati, yaxshi yomon tomoni, ahloqiy ahamiyati haqidachiroyli tushuncha berishimiz zarur.

Ertakni ifodali o‘qishdan oldin, o‘zbek xalq ertaklarida turli tuman shaklda ishlatiladigan, an‘anaviy muqaddima va xotimalar mavjud, shulardan namuna o‘qib, bir-biridan farqlari tushuntiriladi. Masalan: ”Tulki bilan tovus” ertagining muqaddimasini diqqat bilan o‘qiyimiz: “Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg‘ovul qizil ekan, quyrug‘i uzun ekan, g‘oz karnaychi ekan, o‘rdak surnaychi ekan, ola qarg‘a azonchi, qora qarg‘a qozonchi, chumchuq chaqimchi ekan, to‘rg‘ay to‘qimchi ekan, bo‘ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimizning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo‘ri bor”.

“Oypari” ertagining muqaddimasi undan farq qiladi: ”Bor ekanda, yo‘q ekan, och ekanda to‘q ekan, o‘tgan zamonlarning birida Husaynboy ismli kambag‘al bir bechora yigit bo‘lgan ekan, uning yotarga uyi, turarga joyi ham yo‘q ekan.

E‘tibor berib o‘qisak ikkala ertakning muqaddimasi boshqa-boshqa o‘qilishini

sezish qiyin emas. Namuna sifatida bitta ertakning ya’ni “Uch og‘a – ini botirlar” ertagining ifodali o‘qilishini namuna sifatida beramiz.

“Bir bor ekan (qisqa pauza), bir yo‘q ekan (qisqa pauza), qadim zamonda (pauza) bir kishi bo‘lgan ekan (pauza). Uning uchta o‘g‘li bor ekan (qisqa pauza), Uchovi ham o‘qigan (qisqa pauza), oq-qorani tanigan (qisqa pauza), yuzlari oyday (qisqa pauza), o‘zlari toyday (qisqa pauza), yomon bilan yurmagan (qisqa pauza),

Yomon joyda turmagan ekan (pauza). To‘ng‘ichi –yigirma bir yoshda (qisqa pauza), o‘rtanchasi –o‘n sakkiz yoshda (qisqa pauza), kenjasi –o‘n olti yoshda ekan (pauza)”.

To‘ng‘ichi, o‘rtanchasi va kenjasi kabi so‘zlarni o‘qiyotganda mantiqiy urg‘u beriladi, bu so‘zlardan so‘ng tire bo‘lganligi uchun qisqa bir pauza qilinadi. “Ota (qisqa pauza), bir kuni bularni oldiga chaqirib (qisqa pauza), har birning peshonasidan silab (kichik pauza), bunday debdi (pauza):

O‘g‘illarim (qisqa pauza), men boy emasman (qisqa pauza), men boy emasman (qisqa pauza), mendan qolgan narsalar (qisqa pauza), sizning turmushingiz uchun yetmaydi (qisqa pauza), endi mendan biror narsa umid qilib o‘tirmanglar (pauza). O‘lganimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar (qisqa pauza), deb sizlarni o‘qitdim (qisqa pauza), boqdim- ko‘rdim (qisqa pauza), voyaga yetkazdim (qisqa pauza), quvvatli bo‘ldingizlar (qisqa pauza), yaroq ushlashni o‘rgatdim (qisqa pauza), yaroq ishlatishga usta bo‘ldingizlar (qisqa pauza), qo‘rqitmay o‘stirdim (qisqa pauza), botir bo‘ldingizlar (pauza). Yana uch narsani aytaman (qisqa pauza), quloqlaringizga olib (qisqa pauza), Eslaringizdan chiqarmanglar (pauza): to‘g‘ri bo‘ling –(pauza) bexavotir bo‘lasiz (pauza). Maqtanchoq bo‘lmang- (pauza) uyatga qolmaysiz (pauza). Bundan boshqasini endi o‘zingiz biling (pauza). Qora toyni (qisqa pauza), saman toyni (qisqa pauza), ko‘k toyni asboblari bilan tayyorlab qo‘ydim (pauza). Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘izdim (pauza). Baxtingiz yo‘lda (qisqa pauza), uni topib olmoq uchun safarga chiqingiz (qisqa pauza), dunyoni tanimay (qisqa pauza), dunyo kishisi bo‘lmaysiz (qisqa pauza). Baxt qushini ushlamoq uchun (qisqa pauza) baxt oviga chiqinglar (pauza). Xayr endi (qisqa pauza), o‘g‘illarim, -deb so‘zini tamom qilibdi (pauza)”.

Bu matnda mehribon otaning-qariyaning sevimli farzandlariga qilayotgan nasihati sezilib turishi kerak. Ota so‘zidagi yaroq ushlashni o‘rgatdim, qo‘rqitmay o‘stirdim, to‘g‘ri bo‘ling, maqtanchoq bo‘lmang, qora toyni, saman toyni, ko‘k toyni kabi so‘zlar xuddi yuqorida ko‘rsatilgandek, alohida ta’kidlab, urg‘u berib o‘qilsa ertak g‘oyaviy mazmunining tinglovchi qalbiga borib yetishi osonlashadi.

Ifodali o‘qish o‘quvchining adabiy estetik tahlilga yo‘llashning ilk va muhim bosqichi hisoblanadi. O‘quvchi badiiy asar matni bilan tanishar ekan, unda tasvirlangan voqea-hodisalarning sababiy bog‘lanishini, adabiy qahramonlarning fe‘l-atvorini, o‘zaro munosabatlarini xayolda chamalab ko‘radi, tegishli xulosalar chiqaradi. Matn bilan tanishish jarayonidagi hukm-xulosalar asarning poetik xususiyatlari - tili, syujeti, konflikti, kompozitsion tuzilishi, qahramonlari yuzasidan chiqariladigan yakuniy xulosalarga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Nutq ta’limoti — ortologiya shaxs tomonidan shakllantirilgan matnning ifodaviy ko‘rinishi bo‘lib, u faqat nutqga bog‘liq bo‘lmay, balki ham ruhiy ham estetik hodisa hisoblanadi. Shuning uchun unga namunaviy nutq sifatida baho berilganda tinglovchiga ko‘zda tutilgan maqsadning yoki aytmoqchi bo‘lgan muddaoning to‘liq borib yetishi, ularga ma’lum ta’sir o‘tkazishi nazarda tutiladi. Bu vazifalarni amalga oshirishda nutq oldiga ma’lum talablar qo‘yiladi. Dramatik jihatdan nutqning to‘g‘ri tuzilishi, so‘zlar ko‘zlagan mazmun, ma’noni aks ettirishi, yorqin ta’sirchan his-hayajonli bo‘lishini taqozo etadi.

Ritorika — nutq ta’limotining o‘rganish tarixini boshlang‘ich qadimiy yo‘nalishidir. Ritorika termini qadimdan jonli so‘z san’atining rasmiy nutq ko‘rinishini ifodalab, notiqlik ta’limotida so‘z san’atining nazariyot asoslari haqidagi fan degan tushungani ham anglatadi. Unda ilmiy-uslubiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Ritorika nutqiy amaliyotdagi yutuqlarni o‘rganib, nazariyasini ochuvchi adabiyotlar yaratgan, chunki uning predmeti, rasmiy-jonli so‘z san’ati shakllanish jarayoni bo‘lib, ma’naviyatning muhim quroli bo‘lgan notiqlik san’atining nazariy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish vazifasini bajargan. Ritorika haqidagi ilk ma’lumotlar Afina notiqlik maktabiga oid manbalarda mavjud. Ritorika o‘qish-o‘rganish maktabi, ritor — esa uni o‘rgatuvchi shaxs.

XULOSA VA MUNOZARA. Xulosa qilib aytganda, ifodali o‘qish san’atining bolalar bog‘chasidan boshlab, oliy o‘quv yurtlarigacha o‘quv dasturiga kiritilib, mustahkam o‘rin egallaganligi, fanning bu sohasiga oid turli qo‘llanmalar yaratilganligi, ifodali o‘qish san’atiga bo‘lgan etiborning yorqin namunasi bo‘la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mallaev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. ”O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent. 2013yil.
2. A.Qahhor. Anor. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent – 2012.
3. Q.Oripov, (qisqa pauza), M.Obidova. Ifodali o‘qish. ”O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent. 2012yil.
4. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. 2012 yil